MAKTABDA TASVIRIY SAN’ATNI O’QITILISHIDA NAZARIYA, METODIKA VA DIDAKTIKANING O’RNIUNING NAZARIY ASOSLARI

To’ychizoda Gulnoza Ibrohim qizi
Namangan Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy san’at ixtisosligi 1-bosqich magistranti Ilmiy rahbar: **O`ktamjon Abdullayev**

Annotatsiya: Bu maqolaga Markaziy Osiyo ta’lim soxasini rivojlanishiga oid ma’lumotlar va takliflar kiritilgan. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarini didaktik printsiplarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog’langan xoldagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta’lim va tarbiyaning samarali bo’lishiga erishish mumkin.

Abstract: This article contains information and proposals for the development of the Central Asian education sector. Fine arts classes in general secondary schools cannot be imagined without didactic principles. Only when practice and theory are inextricably linked can effective education and upbringing be achieved in both curricular and extracurricular activities.

Аннотация: В данной статье представлена информация и предложения по развитию сферы образования в Центральной Азии. Невозможно представить уроки изобразительного искусства в общеобразовательной школе без дидактических принципов. Достичь эффективности обучения и воспитания в классной и внеклассной деятельности можно только при интеграции теории и практики.

Kalit so`zlar: Ta’lim tizimi, Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot, ta’lim sifati.

Keywords: Education system, Innovative technologies, modern information, quality of education.

Ключевые слова: Система образования, Инновационные технологии, современная информация, качество образования.

KIRISH

Didaktik printsiplar xisoblangan ta’lim va tarbiyaning birligi, ko’rgazmalilik, ilmiylilik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta’lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo’lishi maktabda tasviriy san’atni o’qitishda aloxida axamiyat kasb etadi.

Maktabda tasviriy san’atni o’qitishda didaktik printsiplar professorlar N.N.Rostotsev, V.S.Kuzin, R.Xasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA METODOLOGIYA

Ta’lim tarbiya birligi printsipi didaktik printsiplarning eng asosiylaridan xisoblanadi va u tasviriy san’atni o’qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o’quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash xisoblanadi.

Tasviriy san’at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari xam katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va xalqlar xayotini ifodalovchi suratlarning reproduktsiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

“Mexmonlarimiz”, “Chet el delegatsiyasini kutib olish”, “Turistlar” mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o’tkaziladigan suxbatlarda o’quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do’stlik tushunchalarini singdirishga xarakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suxbatlar, turli millat va xalqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga va boyishiga olib keladi.

Turli millat yozuvchilarining asarlari va xalqlarning og’zaki ijodiga xos illyustratsiyalar o’quvchilarga boshqa millatlarning hayoti, orzusi, g’oyalari bilan tanishish, sevish va tushunish imkonini beradi.

Tasviriy san’at darslarida millatlararo do’stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali xam amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o’zbek xalqining xayoti va mexnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba’zi chet xalqlarning xayoti va mexnati aks ettirilgan suratlarni ko’rish mumkin.

Shuningdek, taviriy san’at dasturiga bir qator Sharq va G’arb mamlakatlari rassomlarining ijodini o’rgatish xam kiritilgan. Leonardo Da Vinchi, Rafaelg’ Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pikasso, Matiss va boshqa chet el rassomlarining asarlari do’stlik va xamkorlik g’oyalarini amalga oshirishda boy material bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda Misr, Xindiston, Xitoy, Eron, Yaponiya kabi mamlakatlarning me’morchiligini o’rgatish xam nazarda tutilgan. O’qituvchi bunday san’at asarlarini taxlil qilar ekan, ularning o’ziga xos xamda umumiy belgilarini ta’kidlab o’tish maqsadga muvofiq.

O’quvchilar tasviriy san’at asarlarini o’rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mexnati va mexnatdagi jasoratlari, an’analari, odatlari, turmush tarzi xamda tabiati bilan oshno bo’ladilar.

Jamiyat qurilishining muvaffaqiyatli xar bir kishini mexnat qilish darajasiga bog’liq. Shuning uchun kishilarni jamiyat uchun nafi bo’lgan mexnatga nisbatan xatti xarakati asosiy ko’rsatkich sanaladi. Bu sifat mexnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi.

Tasvririy san’at darslarini o’quvchilar mexnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san’at darslarining barcha turlari naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san’atshunoslik asoslari mashg’ulotlari mazmunida ko’zda tutilgan.

Masalan turmushda qo’llaniladigan ayrim san’at buyumlarining o’ziga qarab rasmini chizdirishda o’qituvchi o’quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan ajralgani, buning uchun qancha mexnat sarflangani va xokazolar xaqida to’xtaladi. Shuningdek, o’zbek xalq amaliy san’ati xaqidagi suhbat darslarida ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o’ziga xos jixatlari xaqida gapiradi.

Maktabda tasviriy san’at estetik turkumdagi o’quv predmeti xisoblanib, o’quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim rol’ o’ynaydi, ya’ni tasviriy san’at darslarida san’atdagi va borliqdagi go’zallikni ko’rish, tushunish va qadrlay olish xissi takomillashadi.

Naturani taxlil qilishi jarayonida o’qituvchi o’quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proportsionalligi, shakl va rang uyg’unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi.

Natijada o’quvchilarda naturaga nisbatan emotsional-estetik munosabatlar oshadi. O’quvchilar naqsh chizishda, dekorativ bezak ishlarida tabiatelementlaridan foydalanadilar. Bunga tabiat maxsulotlari yaxshi material bo’lib xizmat qiladi. O’quvchilar tabiat materiallari va xayvonot dunyosini stilizatsiyalashtirib, takrorlanmas va chiroyli naqshlar tuzadilar.

NATIJALAR

Borliqni idrok etish va kompozitsiya darslarida tabiatni kuzatish va uni rasmlarda aks ettirish bolalar tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilar dars jarayonida tabiatni kuzatar ekanlar, ular daraxtlarning tuzilishini, shox-shabbalarning shakl va yo’nalishini turli tumanligi, barglarning rangi va shakli nafisligi va yoqimliligini bilib oladilar. Shuningdek, gullarning rangi va shakli xilma-xilligi, baxor

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va kuz manzarasining go’zalligi, ninachi, kapalak, qushlarning yengil va nafis parvozi o’quvchilarni xayajonlantiradi.

Yuqori badiiy saviyada yaratilgan tasviriy san’at asarlarini o’rganishda o’quvchilar ulardan estetik zavq olishadi. Suvrat koppozitsiyasining muvaffapqiyatli yechilishi, ranglarning xamoxangligiga, borliqning xaqqoniy tasviri bolalarni xayajonlantiradi.

San’at asarlari xaqidagi suxbatlarda o’qituvchi, rassom ko’rganini shunchaki aks ettirib qolmay, balki u borliqdagi eng qiziq, eng chiroyli narsa va xodisalardan ta’sirlanib chizganligi, lozim bo’lgan taqdirda u ko’rgan kechirganlari va eshitganlarini mubolag’a bilan tasvirlashini hikoya qilib beradi.

Ilmiylik printsipi . Didaktik printsiplarning eng asosiylaridan biri bo’lib, u fan asoslarini chuqur o’zlashtirmasdan o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishmumkin emasligini bildiradi. Boshqa o’quv predmetlaridagi kabi bu printsip tasviriy san’at darslarida xam amalga oshiriladi.

MUHOKAMA

Tasviriy san’at atrof – muhitni xis etish, undagi voqea va xodisalarni o’ziga xos jixatlarini belgilashni talab etadi. Shu boisdan tasviriy san’at darslarida o’quvchilar chiziqli va xavo perespektivasi, yorug’ soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va xayvonlarning plastik anatomiyasi xaqida yetarlicha ma’lumotlarga xam ega bo’lishlari loxim. Tasviriy san’at dasturida o’quvchilarning bu qonunlarni o’zlashtirishlari ko’zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o’zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas, desak mubolag’a bo’lmaydi. Rassom yoki o’quvchining rasm chizish uslubi xar xil bo’lishi mumkin, lekin rasm yoki san’at asarlarining ko’rilishi bir xil, ilmiy asosda bo’lishi shart. Perspektiva qonunlari xisoblangan chiziqli va xavo perspektivasi, ufq chizig’i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki kuzatish nuqtasi asosida rasmni ishlash, o’lchovlarni o’zgarish, perspektivasi, och –to’qlikni, o’zgarish perspektivasi, ranglarni o’zgarish perspektivasi va boshqa realistik rasm ishlashga o’rnatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik printsipi tasviriy san’at o’qituvchilaridan dars jarayon ida va sinfdan tashqari ishlarda o’quvchilarga berilayotgan barcha material va mahlumotlar ilmiy bo’lishligini, maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo’lishligini talab etadi.

Ko’rgazmalilik printsipi. Tasviriy san’atni o’qitishda borliqdagi narsa va xodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o’rganishga ko’maklashadi. Naturani o’rganish chog’ida o’quvchilarni kuzatuvchilik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

O’qituvchida har doim ham o’rganilayotgan ob’ektni ko’rsatish imkoni bo’lavermaydi, bunday xollarda unga ko’rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o’quvchilarda mazkur sohaga bo’lgan qiziqishini jonlantiradi.

Tasviriy san’atni o’qitishda nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog’liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyotning bog’liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to’garak mashg’ulotlarida, jamoa ishlarida yahni devoriy gazetalar chiqarish, alg’bom bezash kabilar orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumki o’quvchilar xarakat va qobiliyat jixatidan bir birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o’qituvchidan o’quvchilar bilan yakkama – yakka ish olib borishni talab qiladi. Ya’ni o’qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini xisobga olgan xolda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to’g’rilishga ba’zi nazariy va amaliy vazifalarni tushuntirish maqsadida doskada rasm ishlab ko’rsatishga to’g’ri keladi.

O’qituvchining o’quvchilar yoshiga mosligi printsipi qadimdan qo’llanib kelingan. Bunda yaqindan uzoqqa, mahlumdan nomahlumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka printsiplariga asoslanadi. Pedagogikada bu printsip qadimdan tajribadan o’tganligi sababli

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o’qituvchini o’z faoliyatida shu yo’ldan borishni ko’zlangan maqsadga erishuviga asos bo’ladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlab o’tish lozimki, xamma oson narsalar xam bolalarga tushunarli bo’lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo’lishi xam mumkin. Bundan o’quvchilarning yoshi, pedagogik, psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rolg’ o’ynaydi. Masalan, tasviriy san’atni o’qitishda yaqindan uzoqqa borish printsipida ish tutish maqsadida o’qituvchi avval bolalarga yaqin bo’lgan O’zbekistonning tabiati, xalqimizning turli turmushi, mexnatini tasvirlovchi, O’zbekiston rassomlari asarlarini, so’ngra O’rta osiyo, Sharq Yevropa mamlakatlari san’atini o’rgatadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik printsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezab olish qiyin emas. Didaktik printsip o’quvchilarning badiiy ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishga tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bulatov S.S. Naqqoshlik. – Toshkent: ―Fan va texnologiya‖, 2010.
2. Bulatov S.S. Amaliy bezak san‘ati mashg‘ulotlari metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008.
3. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san‘at qisqacha lug‘ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
4. Bulatov S.S, Tolipov T «Go‘zallik falsafasi». -T., «Fan va texnologiya». 2008.
5. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007.
6. G‘ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. – T.: Bilim, 2004.
7. Zohidova D. Hunarmandchilikka kirish. -T:. UMKXTRI. 2001.
8. Topildiyev, O. R. Current research journal of…, 2021–masterjournals. com. The process of spiritual education of youth, 78-82.
9. Топилдиев, О. Р. (2011). Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фан. ном. дисс.… Т.: ЎзМУ.
10. Topildiyev, O. R. (2015). The role of the family, mahallas and educational institutions in the education of youth. Society: sociology, psychology, pedagogy, 3, 29-30
11. Топилдиев, О. Р. (2015). Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. Общество: социология, психология, педагогика, (3), 29-30.
12. Афанасьева, Ю. А., Галынская, Ю. С., Ермолаева, Е. В., Крупчатникова, В. В., Мельникова, А. С., Мостовая, Е. Б.,&Скворцова, О. В. (2019). Сельские жители и местная власть: анализ взаимодействия в контексте модернизации.
13. Shohbozbek, E. (2024). RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(09), 16-20.
14. Oybek ugli, E. S. (2023). The Influence of the Idea “From the Strategy of Actions to the Strategy of Development” on the Process of Reforms in the Spiritual, Educational and Cultural Sphere. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(9), 316–322.
15. Ergashbaev Shokhbozbek Oybek ugli. (2023). POSITIVE EFFECTS OF THE REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN ON THE EDUCATION SYSTEM. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 108–111.
16. Ergashbaev Shokhbozbek Oybek ugli. (2023). THE IMPACT OF THE NEW DEVELOPMENT STRATEGY IN UZBEKISTAN ON THE PROCESS OF REFORMS IN THE SPIRITUAL, EDUCATIONAL AND CULTURAL SPHERE. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 56–59.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.